

METHODOLOGY OF USING GAME STRATEGY IN TEACHING THE SUBJECT "ECONOMIC GEOGRAPHY OF UZBEKISTAN"

Nurillayeva Dildora Toxir qizi

Namangan viloyati Namangan tumanidagi

26-umumta'lim mакtabining geografiya fanio'qituvchisi

Abstract: The organization of lessons based on the methodology of game strategies not only provides students with geographical knowledge, but also teaches them to think independently, draw conclusions and shape their worldview

Keywords: strategy, groups, pedagogical skills, methodology

Annotatsiya: O'yin strategiyalari metodikasi asosida darslarni tashkil etilishi o'quvchilarga faqatgina geografik bilimlar beribgina qolmay, ularni mustaqil fikrlashga, xulosalar chiqarishga o'rgatish va dunyoqarashini shakllantirishdan iborat.

Калит сўзлар: strategiya, guruxlar, педагогик маҳорат, metodika

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi ta'lif tizimida ijtimoiy hayotning barcha yo'nalishlari jumladan, uzluksiz ta'lif tizimining barcha bosqichlarida keng ko'lamlı islohotlar olib borilmoqda.

Ahborotlar oqimi nafaqat jahon ijtimoiy hayotiga balki O'zbekistonga ham shiddat bilan kirib kelmoqda va barcha jabhalarni to'liq qamrab olmoqda. Shuningdek, Oliy ta'lif tizimi oldida ham ahborotlarni tezkor suratlarda qabul qilib olish ularni yangi pedagogik innovacion usullarda tahlil etish qayta ishlash nazariy jihatdan umumlashtirish, hulosalash hamda, o'quvchiklarga mahorat bilan etkazib berishni yo'lga qo'yish muhim, dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.


O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M. Mirziyoevning "Ta'lif-tarbiya jaryonidagi o'zgarishlar o'qituvchilar yoshlar oldiga ham muhim vazifa ko'yadi. kerakli bilimlarni mustaqil qidirib topish, ahborot to'plash va ularni ishlata bilishlari bilan bog'liq. Umuman olganda globallashuv davrida ta'lif-tarbiya jarayoni zamon ko'yayotgan talablarga javob berishi, undan orqada kolmasligi muhim ahamiyatga ega. Bu mamlakatimizda belgilangan demokratik jamiyat qurish vazifalarini amalga oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ta'lif sohasidagi yutuqlar taraqqiyotning kaliti bo'lsa, tarbiya sohasidagi o'ziga hoslik O'zbekistonni mustaqil taraqqiyot yo'lidan rivojlanishini kafolatlab beradi"¹ degan so'zlarini e'tirof etgan holda ta'lif-tarbiya berish yosh o'qituvchilarni yangicha sharoitlarda ishlashga tayyorlovchi innovatsion jarayon bo'lib, oldingi egallangan bilimlar asosida ijobjiy pedagogik samaralarni beruvchi yangicha yondashuv tehnologiyalarni yaratish va joriy etishdan iboratdir.

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириши бўйича Харакатлар Стратегияси тўғрисида»ги ПФ-4947-сон Фармони. – Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари тўплами, 2017 й., 5-сон, 70-модда. //www.lex.uz

O'qituvchi ta'lif jarayonida rejissyor bo'lib, o'quvchilarning mustaqil faoliyatini tashkil etish bilan ularni darsning faol ishtiroychisiga aylantirish asosida yuqori samaradorlikka erishishning asosiy yo'llaridan biri - yangi pedagogik texnologiyani qo'llashdir.

"Zinama-zina" strategiyasi

Strategiya o'quvchilarda o'rganilayotgan mavzuni kichik mavzularda ajratilgan holda rasm, tasvir, jadval yoki slaydlar asosida o'rganish ko'nikmalarini shakllantiradi. Shuningdek, u o'quvchilarda mavzuni o'rganishga ijodiy yondashish, shahsiy fikr, o'zlashtirish tushunchalarini tasviriy ko'rinishda ifodalash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Undan foydalanish tartibi quyidagicha:



"Intervyu" strategiyasi

Ta'lif jarayonida ushbu strategiya juftlik asosida mavzu bo'yicha o'quvchilar tomonidan o'rganilgan bilimlarning namoyish etilishini ta'minlash maqsadida qo'llaniladi. Bunda juftlikdagi o'quvchilarning biri "Muhbir", ikkinchisi esa "Taniqli shahs" bo'lishi lozim. Intervyu jarayonining har iki qatnashchisi ham mavzuni yaxshi o'zlashtirgan bo'lishi shart. "Muhbir" o'rganilgan mavzu yuzasidan savollar to'plamini ishlab chiqadi, "Taniqli shahs" esa savollarga javob bera olishi lozim. Savollar va ular yuzasidan berilgan javoblarni yozma shaklda qisqacha bayon etish maqsadga muvofiqdir. Zero, belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach, har bir "Muhbir" jamoa a'zolarini o'zi tuzgan savollar, ular yuzasidan "Taniqli shahs" bergann javoblar bilan tanishtiradi. Barcha "Muhbir" larning chiishlari tinglangach, jamoa a'zolari o'qituvchi rahbarligida eng maqbul savollar to'plamini, savollarga berilgan eng to'g'ri, batafsil javoblar variantlari aniqlanib, g'oliblarni belgilaydi. Jamoaning fikrini inobatga olgan holda o'qituvchi g'oliblarni e'lon qiladi. "Musbat, manfiy, qiziqarli" (MMQ) strategiyasi

Strategiya o'quvchilarni mavjud vaziyatning barcha detallarini puxta o'rganish asosida xulosa chiqarishga odatlantirish orqali ongini boyitish, tafakurini kengaytirishga xizmat qiladi. Ta'lif jarayonida MMQ strategiyasini qo'llash o'quvchilarning ma'lum voqelik,

hodisa yoki jarayonning barcha jihatlariga ehtiborni qaratatish, ularning salbiy jihatlarni baholash, qiziqarli tomonlarini aniqlash va kengaytirishga doir ko`nikma, malakalarini rivojlantirishda samarali sanaladi. Bunda asosiy ehtibor mavjud vaziyatning barcha ijobjiy jihatlarini inobatga olishga qaratiladi. O`rganilayotgan vaziyat yuzasidan xulosa chiqarish, qaror qabul qilish faqat u batafsil o`rganib chiqilgandan keyingina amalga oshirilishi mumkin.

O`quv fanlaridan bilimlarini o`zlashtirishda MMQ strategiyasi qo'llanilsa, u holda o`quvchilarning fikrlesh samaradorligi bir necha marta oshadi. Ko`p hollarda bir qarorga kelishni talab qiladigan vaziyatlarda ham ushbu strategiya qo'llash maqsadga muvofiqdir. MMQ strategiyasi bir vaqtning o`zida o`quvchilar faoliyatini o`rganish va baholash metodi ham hisoblanadi. Uni qo'llash sxemasi quyidagicha:

Birinchi bosqich	Ikkinci bosqich	Uchinchi bosqich
<ul style="list-style-type: none"> • Mavjud vaziyatning faqatgina ijobjiy jihatlari aniqlanadi 	<ul style="list-style-type: none"> • Mavjud vaziyatning faqatgina salbiy jihatlari o`rganiladi 	<ul style="list-style-type: none"> • Mavjud vaziyatning faqatgina qiziqarli jihatlarini topiladi.

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар Стратегияси тўғрисида»ги ПФ-4947-сон Фармони. – Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари тўплами, 2017 й., 5-сон, 70-модда. //www.lex.uz
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 24 январдаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси
3. Ваҳобов Ҳ, Мирзамахмудов О. География ўқитиши методикаси. “Наманган”, 2016.-Б.62
4. Коджаспирова Г.М. Педагогика: учебник.-М.: «Гардарики», 2004.-С.137
5. Никадамбаева Ҳ, Рўзиева Д, Карабазов З. “Ўрта Осиё табиий географиясини интерфаол методлардан фойдаланиб ўқитиши имкониятлари” “Тошкент”-2017 йил.Б.3
6. Сластенин В, Исаев И.И др.Педагогика: учебное пособие.-М.: 2007-С.142
7. Эргашева Г, Ахмедова Н.Узлуксиз таълим тизимида ўқитувчини инновацион фаолиятга тайёрлаш механизmlари. Узлуксиз таълим журнали.1-сон, 2015 йил.Б.22-23